

PROSPECTS FOR DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: ON THE EXAMPLE OF BELARUS

Muydinov Olim Bekmuratovich

Samarkand branch of Tashkent State University of Economics
Assistant of the Department of digital economy and Information Technology.

E-mail: olim.muydinov.86@mail.ru

Azizbek Khurramov

Researcher of Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

E-mail: azizbek.khurramov@yahoo.com

Abstract: The article covers the concept of the digital economy, the definitions given to it, the work carried out in the Belarusian State on the development of the digital economy, the implementation of digital technologies in various spheres of the economy.

Key words: Digital economy, e-commerce, e-business, hybrid world.

Kirish.“Raqamli iqtisodiyot” tushunchasi hayotimizga kirib kelganiga hali ko’p vaqt bo’lmadi, lekin deyarli har kuni bu atamaga duch kelmoqdamiz. O’zbekistonda oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi va huquqiy bazasi yaratildi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni [1], Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 31 avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan “O’zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” Qaror qabul qildi, hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi “O’zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin.[2]

Asosiy qism. 2020 yil 2 mart kuni “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Prezidenti Farmoni imzolandi. Davlat dasturi 299ta banddan iborat bo’lib, unda umumiy qiymati 18,2 trln. so’m va 10,3 mlrd. AQSh dollariga teng loyihalar tasdiqlandi.

Shundan:

- Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli fondlar hisobidan – 12,9 trln. so’m;
- Ijrochilar va banklar mablag’lari hisobidan – 2 trln. so’m;
- Xalqaro moliya institutlari mablag’lari va grantlar hisobidan 3,3 trln. so’m va 10,3 mlrd.

AQSh dollariga teng bo’lgan loyihalardir.[3]

Raqamli iqtisodiyot” atamasi 1995 yilda amerikalik dasturchi Nicolas Negroponte tomonidan amaliyotga kiritildi.[4] Kanadaning Toronto Universiteti professori Don Tapscott tomonidan 1997 yilda chop etilgan “Raqamli iqtisodiyot: tarmoq intellekti asrida va’dalar va xavf-xatarlar (The digital Economy: promise and peril in the age of networked intelligence.)” asari eng ko’p sotilgan kitob (bestseller)ga aylandi.[5]

Raqamli iqtisodiyotga ko’plab ta’riflar mavjud. Iqtisod fanlari doktori, professor S.S.G’ulomov raqamli iqtisodiyotga shunday ta’rif beradi: “Qisqa va lo’nda qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot– bu jamiyat ne’matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborot- kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etishni ko’zda tutadigan insonning xo’jalik faoliyatini tadqiq etuvchi fandır.”[6]

Belaruslik olim M.M.Kovalyov ta'rificha – “Raqamli iqtisodiyot bu raqamli kompyuter texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyotdir, ammo axborotlashtirishdan farqli o'laroq, raqamli transformatsiya nafaqat axborot texnologiyalarini joriy etish bilan cheklanib qolmaydi, balki Internet va yangi raqamli texnologiyalarga asoslangan sohalar va biznes jarayonlarini tubdan o'zgartiradi.”[7]
Bu olim raqamli iqtisodiyotni yanada kengroq tushuntirish uchun, raqamli iqtisodiyotning uchta tarkibiy qismi ajratib ko'rsatadi:

- elektron biznes infratuzilmasi (tarmoqlar, dasturlar, kompyuterlar va boshqalar).
- elektron biznes, ya'ni kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda biznesni tashkil etish;
- elektron tijorat, ya'ni tovarlarni chakana savdosi.

Dunyoda "raqamli iqtisodiyot" hodisasi to'g'risida yagona tushuncha yo'q, ammo ko'plab ta'riflar mavjud. Eng muvaffaqiyatli biri quyidagilardan iborat - "Raqamli iqtisodiyot bu - gibriddunyo mavjud bo'lgan iqtisodiyot". Gibriddunyo haqiqiy va virtual dunyolarning birlashishi natijasidir, bu virtual dunyoda haqiqiy hayotdagi barcha "hayotiy" harakatlarni bajarish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu jarayonning muhim shartlari - bu yuqori samaradorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining arzonligi va raqamli infratuzilmaning mavjudligi.

Hozirgi kunda ko'pgina olimlar raqamli texnologiyalarga katta umid bog'lashmoqda, chunki ularni amalga oshirish iqtisodiy o'sishga olib keladi. Raqamli poyganing norasmiy yetakchilari hisoblanadigan AQSh va Xitoy birinchi bo'lib raqamlashtirish ishlariga katta e'tibor berishdi. Ulardan so'ng Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya, Kanada va boshqa davlatlar tomonidan tegishli strategiya va dasturlar qabul qilindi. Biroq, ushbu mamlakatlarning asosiy hujjatlarida "raqamli iqtisodiyot" ning shakllangan konsepsiyasi va strategik qarashlari, uning barcha jihatlarini qamrab oladigan aniq ta'rif, joriy iqtisodiyotga ta'sirini baholash, Boshqa sohalarda ro'y berishi kerak bo'lgan asosiy sifat o'zgarishlarining tavsifi mavjud emas.

Shunday qilib, dunyoda raqamli iqtisodiyot nima va u qanday oqibatlariga olib kelishi to'g'risida to'liq tushuncha yo'q. Ko'pchilik buni ko'pincha to'lovlar va iste'molchilar bilan aloqaning yangi shakllari, lekin boshqaruv va iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari emas, deb tushunishadi. MDH davlatlaridan Belarus davlati raqamli iqtisodiyotni qurish yo'lida inqilobiy qadam qo'ydi.

Nima uchun Belarus davlatini misol qilmoqdamiz. Chunki Belarus davlati ham xuddi O'zbekistonga o'xshash YaIMini katta qismini qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil etadi. Yana bir e'tiborli tomoni mustaqillikka bir vaqtda erishgan davlat hisoblanadi. Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining qarori bilan tasdiqlangan 2016 yil 23 martdagi 235-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2016-2020 yillarda raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyatini rivojlantirish davlat dasturi” qabul qilindi. [8]

Ushbu hujjatning mohiyati nima va u qaysi sohalarga ta'sir qiladi?

- Ushbu Dastur IT-mamlakatni yaratishda muhim qadamdir. Hujjat Belarus davlatiga texnologiya sohasida mintaqaviy markazga aylanishga, venchur kapital qo'yilmalarni jalb qilishga, ish o'rinlarini yaratishga, IT sohasi va uning rivojlanishiga yangi ilhom bag'ishlashga yordam beradi. Rivojlanish sur'atlarini hisobga olgan holda, bu raqamlashtirish iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarni jadallashtirishning asosiy omili hisoblanadi. Dastur 9 ta bo'limni o'z ichiga qamrab olgan. Ular quyidagilar:

1. Umumiy holat;
2. Davlat dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan Belorusiya Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari;
3. Davlat dasturining maqsadi, vazifalari, umumiy ko'rsatkichlari va dasturosti ko'rsatkichlari
4. Davlat dasturining moliyaviy manbalari va hajmi
5. Davlat dasturining tatbiq qilish riski
6. Davlat dasturining samaradorligini baholash metodlari
7. Axborot kommunikatsiya infratuzilmasi
8. Axborotlashtirish infratuzilmasi
9. Raqamli transformatsiya

Ko'pgina davlatlarda xususan Belarus davlatida, raqamlashtirish uchun iqtisodiyotning eng istiqbolli yo'nalishlari va tarmoqlari sanoat, qishloq xo'jaligi va energetika hisoblanadi.

Sanoat sohasida, bu to'liq sikl ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, ishlab chiqarishni, xodimlar va kompaniya aktivlarini boshqarishni avtomatlashtirish uchun ERP-tizimlarini joriy etish, yetkazib berish va mahsulotning hayotiy siklini axborot bilan ta'minlash uchun CALS-texnologiyalaridan foydalanish, oraliq va yakuniy mahsulotlarni ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish va sinxronlashtirish uchun MES-tizimlarni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi haqida gap ketganda, ular umumiy savdo platformasini, shu jumladan elektron savdo maydonchalarini, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan boshqarishning yagona raqamli tizimini, mahsulotlarning harakatini boshqarish, savdo-texnik to'siqlarni hisobga olish va aniqlashni anglatadi. Energetika tarmog'ini raqamlashtirish energiya samaradorligi, energiya tejash va energiya auditi sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishni, energetika sohasida raqamli infratuzilmalardan birgalikda foydalanishni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Oxirgi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar qilindi. Raqamli dunyoda hech qachon biron bir qilayotgan ishimizni yashirincha bajarib bo'lmaydi. Hammasi bir tizimda aniq ko'rinib turadi va bu holat hozirgi asosiy maqsadimizdan biri bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashishda o'z samarasini beradi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham borki bu bevosita ana shu raqamlashtirish jarayonidagi dasturiy ta'minotdir. Agar biz hozirdan yoshlarimizni zamonaviy dasturlarni tayyorlaydigan kadrlar qilib yetishtirmasak, iqtisodiyotni raqamlashtirishga katta mablag' sarf qilaveramiz.

Belarus davlati bizga bu borada yaxshi o'rnak bo'la oladi. Hozirgi vaqtda bu davlat nafaqat MDH mamlakatlari elektron bozoriga, balki butun dunyo elektron bozoriga o'zining raqamli mahsulot va xizmatlari bilan kirib bormoqda. Buni esa iqtisodiyotni raqamlashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bilan izohlash mumkin. Bizda ham bu boradagi ishlarni nafaqat "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" yilida, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish dasturiga kiritishimiz kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953 sonli "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni
4. Negroponte, N. Being Digital / N. Negroponte. — NY: Knopf, 1995. — 256 p.
5. Tapscott, D. The digital Economy: promise and peril in the age of networked intelligence. — New York: McGraw-Hill. — 1997.
6. S.S.G'ulomov va b. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 b.
7. М. М. Ковалев, Г. Г. Головенчик. Цифровая экономика – шанс для Беларуси. Монография. - Минск : Изд. центр БГУ, 2018. – 327, с.
8. «Об утверждении Государственной программы развития цифровой экономики и информационного общества на 2016–2020 годы.» Постановление Совета Министров Республики Беларусь 23 марта 2016 г. № 235